



Different and similar aspects of dysphemism in English and Uzbek

Yulduzkhon KHOJAMOVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024

Received in revised form
10 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

25 June 2024

Keywords:

dysphemism,
pragmatic analysis,
semantic analysis,
sociolinguistics,
English language,
Uzbek language,
cultural context,
social relations,
linguistics,
linguistics.

ABSTRACT

This article presents an analysis of dysphemisms in the English and Uzbek languages, with an emphasis on their differences and similarities. The study covers theoretical aspects of dysphemisms, their use in cultural and social contexts, and conducts pragmatic, semantic and sociolinguistic analyses. The article demonstrates how dysphemic expressions are perceived and function in different linguistic environments, identifying culturally determined features and general trends in the treatment of dysphemisms.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp485-489>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va o'zbek tillari disfemizmning farqli va o'xshash tomonlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

disfemizm,
pragmatik tahlil,
semantik tahlil,
sotsiolingvistika,
ingliz tili,
o'zbek tili,
madaniy kontekst,
ijtimoiy munosabatlar,
lingvistika,
tilshunoslik.

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida disfemizmning farqli va o'xshash tomonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada disfemizm kontseptsiyasining nazariy jihatlarini, ingliz va o'zbek tillaridagi madaniy va ijtimoiy kontekstlarda uning qanday ishlatilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, disfemizmning pragmatik, semantik va sotsiolingvistik tahlillari keltirilgan. Misollar orqali disfemik so'zlar va iboralar har ikki tilda qanday qabul qilinishi va ishlatilishidagi farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi.

¹ Teacher, Uzbekistan State World Languages University. E-mail: yulduzkhanim@gmail.com

Разные и похожие аспекты дисфемизма в английском и узбекском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

дисфемизм,
прагматический анализ,
семантический анализ,
социолингвистика,
английский язык,
узбекский язык,
культурный контекст,
социальные отношения,
лингвистика,
лингвистика.

В данной статье представлен анализ дисфемизмов в английском и узбекском языках, с акцентом на их различия и сходства. Исследование охватывает теоретические аспекты дисфемизмов, их использование в культурных и социальных контекстах, а также проводит прагматический, семантический и социолингвистический анализ. Статья демонстрирует, как дисфемические выражения воспринимаются и функционируют в разных языковых средах, выявляя культурно обусловленные особенности и общие тенденции в обращении с дисфемизмами.

KIRISH

“Disfemizm – nomaqbul, haqoratli yoki kamsituvchi iborani yoqimli yoki haqoratli soʻz bilan almashtirish; shunday almashtirilgan ibora” [2]. Disfemizm – bu tilshunoslikda keng qoʻllaniladigan atama boʻlib, u maʼlum bir narsani, holatni yoki shaxsni salbiy, haqoratli yoki qoʻpol tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. Bu hodisa koʻpchilik tillarda mavjud boʻlib, uning ishlatilishida madaniy, ijtimoiy va pragmatik omillar muhim rol oʻynaydi. Ingliz va oʻzbek tillarida disfemizmning qanday ishlatilishi va qabul qilinishini oʻrganish, bu tillarning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Disfemizm konseptsiyasi ilk bor lingvistik adabiyotda XX asrda paydo boʻlgan. Uning asosiy tamoyili shundan iboratki, biror narsani salbiy koʻrinishda taqdim etish orqali nutq soʻzlovchi oʻz fikrini yanada taʼsirliroq yetkazadi. Disfemizmning ishlatilishi pragmatik jihatdan ijtimoiy munosabatlarga bogʻliq. Bu tilshunoslikda qoʻllaniladigan soʻz yoki iboralar konteksti va ijtimoiy holati bilan aniqlanadi. Disfemizm soʻzlari odatda salbiy konnotatsiyaga ega boʻlib, ularning asosiy maʼnosi koʻpincha neytral yoki hatto ijobiy boʻlishi mumkin.

MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI

Maqolada disfemizmning ingliz va oʻzbek tillarida ishlatilishini oʻrganish uchun adabiy va lingvistik manbalar, madaniy kontekstlar va ijtimoiy vaziyatlar tahlil qilingan. Tadqiqot usullari sifatida adabiy sharh, semantik, pragmatik, sotisolingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA TADQIQOT USULLARI

Har bir madaniyat va tilning oʻziga xos disfemizm shakllari mavjud. Bu madaniyat va tilning ijtimoiy qadriyatlarini va normativlarini aks ettiradi. Ingliz tilida disfemizmning ishlatilishi koʻp jihatdan madaniy kontekstga bogʻliq. Misol uchun, Amerikada va Britaniyada bir xil soʻz turli darajada haqoratli boʻlishi mumkin. Bu farq madaniyatlararo farqlardan kelib chiqadi. Misol uchun, “bloody” soʻzi Britaniyada qoʻpol hisoblanishi mumkin, lekin AQShda bu soʻzning qoʻllanilishi nisbatan kamroq haqoratli hisoblanadi.

Oʻzbek tilida madaniy anʼanalar disfemizmning qabul qilinishi va ishlatilishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Anʼanaviy jamiyatlarda qoʻpol soʻzlarning ishlatilishi cheklangan. Bu esa madaniy qadriyatlar va etik qoidalar bilan bogʻliq. Oʻzbek tilida qoʻpol yoki haqoratli soʻzlar ishlatilishi qattiq nazorat qilinadi va koʻpincha ijtimoiy qoralash bilan kutib olinadi.

Ingliz tilida disfemizmning ishlatilishi ijtimoiy mavqe va vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. Rasmiy uchrashuvlarda yoki professional muhitda bunday so'zlar kamroq ishlatiladi, holbuki norasmiy suhbatlarda ular ko'proq uchraydi. Misol uchun, do'stlar orasida "jerk" so'zi ishlatilishi mumkin, ammo ish uchrashuvida yoki rasmiy suhbatda bunday so'zlar qabul qilinmaydi.

O'zbek tilining lingvistik imkoniyatlarining o'ziga xos nutqiy hodisasi bo'lgan evfemizm va disfemizmlar til va madaniyat, til va ruh bog'liqligini yaqqol namoyon etuvchi vositalardir. Binobarin, tilshunoslik tushunchasi globallashib borayotgan hozirgi davrda milliy madaniyatimizni ifodalovchi evfemik va disfemistik vositalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek tilida disfemizmning ishlatilishi odamlarning ijtimoiy darajasi va yoshiga qarab o'zgarishi mumkin. Yoshlar orasida norasmiy holatlarda bunday so'zlar ko'proq ishlatiladi, lekin kattalar orasida bu holat kamroq uchraydi. Shuningdek, oilaviy va rasmiy muhitda bunday so'zlarning ishlatilishi juda kam uchraydi, chunki bu jamiyatning etik qoidalariga zid hisoblanadi [13, 131]].

Disfemizmlarni o'rganishga bag'ishlangan ko'pgina ishlar faqat leksikografik materiallarga asoslangan bo'lib, ular ulardan foydalanishning haqiqiy sohasiga to'liq mos kelmaydi [4]. Ammo so'ngi yillarda olib borilayotgan O'zbekistonda disfemizm sohasidagi tadqiqotlar asosan o'zbek tilining madaniy va ijtimoiy kontekstlari doirasida olib boriladi. Rahmonov [11] va Karimov [7] kabi tilshunoslari o'zbek tilida qo'pol yoki haqoratli so'zlarning qanday ishlatilishini, ularning ijtimoiy va madaniy ta'sirini o'rganishdi. Bu tadqiqotlar ko'proq o'zbek tilidagi disfemik so'zlarning semantik va pragmatik xususiyatlariga qaratilgan. Kulmatov [9] esa o'zbek tilida tabo va eufemizm masalalariga e'tibor qaratgan, bu esa disfemizmning qabul qilinishida muhim o'rin tutadi. Ingliz tilida disfemizm bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Allan va Burridgening "Euphemism and dysphemism: language used as shield and weapon" [1] asari bu sohada muhim manba hisoblanadi. Battistella esa "Bad language: are some words better than others?" [2] kitobida disfemizmning lingvistik va ijtimoiy aspektlarini tahlil qiladi. Jayning "Cursing in America" [6] tadqiqoti Amerika jamiyatida qo'pol so'zlarning psixolingvistik tahlilini o'z ichiga oladi. Hughesning "An encyclopedia of swearing" [5] asari esa ingliz tilidagi haqoratli so'zlarning tarixiy va sotsiolingvistik jihatlarini o'rganadi. Shu kabi bir nechta tadqiqotlarni ko'rib chiqish natijasida bir necha farqli va o'xshash hijatlarini umumalashtirdik, jumladan ingliz va o'zbek tillari disfemizmining farqli tomonlari deya quyidagilarini keltiramiz:

- madaniy xususiyatlar: ingliz tilida madaniy farqlar disfemizmning qanday qabul qilinishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, Amerikada va Britaniyada bir xil so'z turli darajada haqoratli bo'lishi mumkin. O'zbek tilida esa madaniy an'analar va etik qoidalar disfemizmning ishlatilishini cheklaydi;

- ijtimoiy o'rin: ingliz tilida disfemizmning ishlatilishi ijtimoiy mavqe va vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. Rasmiy uchrashuvlarda yoki professional muhitda bunday so'zlar kamroq ishlatiladi. O'zbek tilida esa oilaviy va rasmiy muhitda qo'pol yoki haqoratli so'zlarning ishlatilishi juda kam uchraydi;

- so'z tanlovi: ingliz tilida ko'plab disfemik so'zlar va iboralar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi madaniy kontekstga qarab o'zgaradi. O'zbek tilida esa disfemik so'zlarning soni nisbatan kamroq va ularning ishlatilishi qattiqroq nazorat qilinadi.

Ingliz va o'zbek tillari disfemizmining o'xshash tomonlari deya quyidagilarini topdik:

1. pragmatik aspekt: har ikkala tilda ham disfemizmning ishlatilishi kontekstga qarab o'zgaradi. So'zlovchining maqsadi va nutq konteksti disfemizmning qanday qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatadi;

2. salbiy konnotatsiya: Har ikkala tilda ham disfemik so'zlar odatda salbiy konnotatsiyaga ega bo'lib, ularning asosiy ma'nosi ko'pincha neytral yoki hatto ijobiy bo'lishi mumkin;

3. ijtimoiy reaksiyalar: Har ikkala tilda ham qo'pol so'zlarning ishlatilishiga nisbatan reaksiyalar mavjud bo'lib, bu reaksiyalar ko'pincha ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Ingliz tilida bu reaksiyalar xilma-xil bo'lishi mumkin, holbuki o'zbek tilida bunday so'zlarning ishlatilishiga ko'pincha salbiy reaksiyalar beriladi.

Til ushbu o'xshash va farqli jihatlarini misollar orqali ko'rib chiqamiz.

"Idiot" va *"moron"* so'zlari odamlarga nisbatan ularning aqlsizliklarini ta'kidlash uchun ishlatiladi. *"Idiot"* so'zi ko'p hollarda yengilroq haqorat sifatida qabul qilinadi, ammo *"moron"* so'zi nisbatan kuchliroq salbiy ma'noga ega. Bu so'zlarning ishlatilishi ko'pincha suhbatning matniga va tinglovchilarning ijtimoiy holatiga bog'liq. O'zbek tilidagi *"ahmoq"* va *"tentak"* so'zlari ularning ekvivalenti hisoblanib, bu so'zlar odamlarga nisbatan ularning aqlsizliklarini yoki noo'rin xatti-harakatlarini ta'kidlash uchun ishlatiladi. *"Ahmoq"* so'zi odatda kuchliroq salbiy ma'noga ega bo'lib, qattiq qoralash maqsadida ishlatiladi. *"Tentak"* so'zi esa nisbatan yumshoqroq bo'lib, ba'zi hollarda hazil sifatida ham ishlatilishi mumkin.

"Pig". Bu so'z odamlarga nisbatan ularning xatti-harakatlarini yomonlash uchun ishlatiladi. Masalan, *"He's such a pig"* iborasi odamning yomon odatlari yoki xulqini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Bu so'zning salbiy konnotatsiyasi u qaysi kontekstda ishlatilishiga qarab o'zgaradi. O'zbek tilidagi ekvivalentlaridan biri sifatida *"yaramas"* so'zi qo'llaniladi. Masalan, *"Bu bola yaramas"* iborasi bola noto'g'ri xatti-harakatlarni qilayotganini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Bu so'zning salbiy konnotatsiyasi hamma kontekstlarda barqaror bo'lib qoladi.

Disfemizmlar asosan uchta vazifani bajaradi. Ular ma'ruzachining odatda salbiy bo'lgan hissiy munosabatini va nutq mavzusi bo'yicha baholovchi bayonotini ko'rsatadi. Ular nutqni yanada ifodali qiladi. Ular ta'sir qilish va manipulyatsiya qilish uchun til vositalaridir. Umuman olganda, disfemizmlarning nutqda tez-tez uchrab turishining sabablari bir-biriga o'xshashdek tuyuladi. Biroq, ulardan foydalanish chastotasi, maqsadlari va ular bajaradigan vazifalari kabi tafsilotlar ular o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Binobarin, ularning bir-biriga qarama-qarshiligi mutlaq emas [8, 131].

XULOSA

Ingliz va o'zbek tillaridagi disfemizmning farqli va o'xshash tomonlarini o'rganish bu tillarning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Har ikkala tilda ham disfemizmning ishlatilishi kontekstga qarab o'zgaradi, ammo ularning qabul qilinishi va reaksiyalari madaniy va ijtimoiy farqlarga bog'liq. Ingliz tilida disfemizm ko'proq individualizmga asoslangan bo'lsa, o'zbek tilida ijtimoiy va oilaviy munosabatlar ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Bu tahlillar orqali ko'rish mumkinki, disfemizm har bir tilda va madaniyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning ishlatilishi va qabul qilinishi turli omillarga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Allan, K., & Burridge, K. (1991). *Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon*. Oxford University Press.
2. Battistella, E. L. (2005). *Bad Language: Are Some Words Better than Others?* Oxford University Press.
3. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
4. Faizullova M.R., Bortnikov V.I. FUNCTIONAL ASPECT OF EUPHEMISMS AND DYSPHEMISMS ON THE MATERIAL OF MODERN ENGLISH MEDIA. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/72002/1/978-5-91256-441-3_2019_017.pdf
5. Hughes, G. (2006). *An Encyclopedia of Swearing: The Social History of Oaths, Profanity, Foul Language, and Ethnic Slurs in the English-speaking World*. M.E. Sharpe.
6. Jay, T. (1992). *Cursing in America: A Psycholinguistic Study of Dirty Language in the Courts, in the Movies, in the Schoolyards and on the Streets*. John Benjamins Publishing.
7. Karimov, S. (2007). *O'zbek Tilshunosligi. Fan va Texnologiya*.
8. Khujamova, Y. A. (2023). Semantics and Pragmatics of Disphemistic and Euphemistic Units. *Intersections of Faith and Culture: AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies*. Volume 01, Issue 03, 2023 ISSN (E): 2993-2599
9. Kulmatov, K. (2015). *O'zbek Tilida Tabo va Eufemizm*. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
10. Partridge, E. (2006). *Shakespeare's Bawdy*. Routledge.
11. Rahmonov, M. (2010). *O'zbek Tili va Adabiyoti*. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
12. Rawson, H. (1981). *Wicked Words: A Treasury of Curses, Insults, Put-Downs, and Other Formerly Unprintable Terms from Anglo-Saxon Times to the Present*. Crown Publishers.
13. Zuxriddinova, M. S. (2024). DYSPHEMIA AND ITS EXPRESSION IN SPEECH. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. www.econferenceseries.com
14. Стариченок, В.Д. *Большой лингвистический словарь*. – Ростов н/Д.: Феникс, 2008 г. – 169 с.